Umarov Ilxomjon Yuldashevich, Abdulxamidova Nodira Abdurashitovna	
Xalqaro tajriba asosida uy xo'jaliklarining investitsion faoliyatini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	784
Berdiyev G'ayrat Ibragimovich	
O'zbekistonda elektroenergetika sohasi boshqaruvini tartibga solish masalalari	795
Samiev Shoxrux Faxriddin o'g'li	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'llari	801
Xaydarova Nargiza Anvarovna	
Greening Hotel Operations: A Framework for Sustainable Resource Management and Cost Efficiency in Bukhara Region.....	809
Toyirova Sarvinoz Atoevna, Canós-Darós, Lourdes, Osorio-Acosta, Estefanía	
O'zbekiston sanoat mahsulotlari eksportining tashqi bozorlar bilan o'zaro aloqalari	819
Yo'ldoshev Nozimbek Ma'rufjon o'g'li	
O'zbekistonda tibbiy ta'lim eksportining rivojlanish tendensiyalari	824
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Dunyo oziq-ovqat bozorining dinamik rivojlanishidagi o'zgarishlar, qiyinchiliklar va ularning yechimlari	832
Tolipova Baxtigul Farxodovna	
Sanoat korxonalarida boshqarish jarayonlariga omillar ta'sirini baholash uslubiyotlari	836
D.Ziyayeva	
Zamonaviy firmalarda kommunikativ aloqalar tizimini o'rnatish bilan bog'liq muammolar	840
Sh.A.Suleymanova, Sh.Z.Erkinova	



Перспективы развития электронной коммерции Республики Узбекистан	845
Маҳаммадалиева Муслимахон Шерали кизи	
Surxondaryo viloyatida o'rta muddatda uy-joylar qurilishi prognozlashtirishni tekshirish	851
Ibragimov Nodir Shopo'latovich, Ibragimov Qobil To'xtamishovich, Toshpo'latov Bobur Rasuljon o'g'li, Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi, Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini takomillashtirish orqali investitsiya jozibadorligini oshirish mexanizmlari	858
Muxammadiyev Faxriddin Baxtiyorovich	
O'zbekiston respublikasi budget daromadlarining amaldagi holati tahlili	861
Shodiyev Xurshedjon Karimovich	
Korxonalarda ishlab chikarish strategiyasini innovasion faoliyati orqali takomillashtirish yo'llari	865
Fayzullayeva Aziza Nusratillayevna	
Budget tashkilotlarining shtat jadvallarini tuzish va xarajatlar smetasi	871
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Tax Revenues and Budget Allocation: The Impact of Tax Revenues on the Economy in Uzbekistan and Indonesia	875
Vafoyeva Sevinch, Umarova Zulaykho	
Erkin iqtisodiy zonalar – rivojlanishning muhim omili	879
Axtamova Parizod Oybek qizi	
The significance and impact of contemporary tourism infrastructure in boosting a country's tourism potential	883
Matkabillova Diloram Khalilullayevna	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari	887
Abduvaliyev S.A.	
Yangi iqtisodiy tizimda barqaror ish bilan bandlik konsepsiyasini ishlab chiqish va unga oid global tajribalar	892
Xoliyorova Shoxista Qaxramon qizi	
Bo'lajak pedagog-o'qituvchining innovatsion faoliyati modeliga asoslangan xolda ta'lim-tarbiya metodlari va vazifalarini o'rgatish	898
Abdullaeva Sanobar Berdievna	
O'zbekiston to'qimachilik klasterlari orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash	903
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich	
Xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari tahlilining ilmiy asoslari	909
G.J.Jumayeva	
Интеграция современных концепций управленческого учета в учетно-аналитическую практику вузовских научных учреждений в Узбекистане	912
Каршиева Мохинур Олим кизи	
O'zbekiston sug'urta amaliyotida umr davomiyligi funksiyalarini aniqlashda aktuar hisoblarning o'rni	916
Abdujalilova Guzal Saydillayevna	
O'zbekiston respublikasi moliya-kredit tizimidagi muammolari va ustuvor yo'nalish istiqbollari	931
Olimov Abror Axadjon o'g'li	
O'zbekistonning fiskal va monetar siyosati tashqi savdo defitsiti o'sishiga ta'siri	935
Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich	
The accounting system in trade organizations, as well as the classification of income in trade	941
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li, Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sish omillari va ularning tahlili	947
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Ro'ziqulov Abduqahhor Ixtiyor o'g'li	
Mehmonxona restoranlarida xodimlar malakasini oshirish tizimi va ularning samaradorlikka ta'siri	954
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy asoslari va mamlakatimizda yaratilgan shart-sharoitlar	958
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	



Yog'-moy korxonalari personalini boshqarishning ahamiyatli jihatlari.....	963
Azlarova D.A.	
Mahalliy budget daromadlari bazasini kengaytirishda hokimliklarning vakolatlarini oshirish masalalari.....	967
Tuychiev Kamoliddin	
O'zbekiston yengil sanoat korxonalarida marketing strategiyalari	974
Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna	
Innovative technologies of modern accounting and their impact on efficiency	979
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Роль телекоммуникации в экономике Республики Узбекистан	983
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Роль финансов в Узбекистане на современном этапе	987
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи	
Mahalliy budjetlarni boshqarish va tuzish tartibi	992
Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li	
Elektron tijoratni soliqqa tortish ma'muriyatchiligini takomillashtirish yo'nalishlari.....	997
Urazaliyev Kamoliddin Tajikovich	
Soliq xulq-atvorini shakllantirishda davlat dasturlari va vositalarining roli.....	1003
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
O'zbekiston bank tizimini rivojlantirishda raqamli banklarning ulushi.....	1011
O'lmasov Abdurahmon Aziz o'g'li	
Digital neighborhood frameworks in community-centric urban infrastructure planning	1019
Gulsara Ostona Kulova, Sitora Odilova	
Sug'urtada investitsiya faoliyati samaradorligini oshirish	1026
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
Анализ результатов инструментальных методов исследований у детей с врожденными пороками сердца.....	1031
Мухаммадиева Лола Атамурадовна	
Moliya tizimida davlat nazoratini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	1039
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalar jalb etishdagi konseptual jihatlari.....	1043
Karimova Komila Daniyarovna	
Buxoro viloyatida biologik xilma-xillikni asrash: iqtisodiy tahlil va ustuvor yo'nalishlar.....	1048
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich	
Hududda raqobatdosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish	1053
Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
Mehnat huquqi nuqtayi nazaridan gid va ekskursovodlar faoliyatini tartibga solish masalalari.....	1058
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Ensuring corporate financial stability through the use of digital technologies.....	1063
Xusanova Dilorom Shavkatovna	
Ikkiyoqlama soliqqa tortishga qarshi kurashishning yevropa davlatlari amaliyoti.....	1068
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
Xorijiy tajriba asosida o'zbekistonda tadbirkorlikni boshqarish va raqamli texnologiyalarni joriy etish	1074
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Sug'urta faoliyatida andarrayting xizmati samaradorligini oshirishning konseptual asoslari	1078
D.E.Qarshiev	
Mintaqa hunarmandchiligida biotexnologik usullar va ekologik biomateriallar tahlili.....	1086
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
Учет инвестиционной недвижимости в республике узбекистан и ее гармонизация в мсфо.....	1089
Обидхонов Х.Х.	
Oliy ta'limda akademik boshqaruvni raqamlashtirishning afzalliklari	1095
Muxamedova M.	



OLIY TA'LIMDA AKADEMIK BOSHQARUVNI RAQAMLASHTIRISHNING AFZALLIKLARI

Muxamedova M.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida akademik faoliyatni samarali boshqarishning dolzarb jihatlarini yoritildi. Akademik boshqaruvning hozirgi holati tahlil qilinib, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar berildi. Raqamlashtirish, sifat monitoringi va zamonaviy menejment yondashuvlari asosida boshqaruv tizimini rivojlantirishning ahamiyati asoslab berildi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, akademik boshqaruv, raqamlashtirish, sifat nazorati, innovatsiya, strategik rejalashtirish.

Abstract: This article highlights the current issues of effective management of academic activities in higher education institutions. The current state of academic management is analyzed and proposals for its improvement are made. The importance of developing a management system based on digitalization, quality monitoring and modern management approaches is substantiated.

Key words: higher education, academic management, digitalization, quality control, innovation, strategic planning.

Аннотация: В статье освещаются актуальные вопросы эффективного управления академической деятельностью в высших учебных заведениях. Проанализировано современное состояние академического менеджмента и даны предложения по его совершенствованию. Обоснована важность разработки системы управления на основе цифровизации, мониторинга качества и современных подходов к управлению.

Ключевые слова: высшее образование, академический менеджмент, цифровизация, контроль качества, инновации, стратегическое планирование.

KIRISH

XXI asrda bilim va innovatsiyalar iqtisodiyoti tobora jadallashayotgan bir paytda, har bir davlatning taraqqiyoti avvalo uning ta'lim tizimi, xususan, Oliy ta'lim muassasalarining faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib bormoqda. Oliy ta'lim muassasalari nafaqat mutaxassis tayyorlovchi maskan, balki jamiyat taraqqiyotiga yo'naltirilgan ilmiy, madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarning markaziga aylangan. Ayniqsa, ta'lim sifati va ilmiy salohiyat ko'p jihatdan Oliy ta'lim muassasalarining akademik faoliyati va uning boshqaruv tizimiga bevosita bog'liqdir.

So'nggi yillarda Respublikamizda oliy ta'lim sohasi tubdan isloh qilinmoqda. Jumladan, Prezident qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining strategik dasturlari asosida ta'lim jarayonining erkinlashtirilishi, raqamlashtirish, kredit-modul tizimiga o'tish, akademik erkinlikning kengaytirilishi kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq, bu islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan akademik boshqaruv tizimining zamonaviy va samarali mexanizmlarga asoslangan bo'lishini taqozo qiladi.

Akademik boshqaruv o'quv rejaları va dasturlarni shakllantirish, baholash tizimlarini aniqlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish, professor - o'qituvchilar mehnatini boshqarish, talabalarning yutuqlari va akademik halollikni nazorat qilish kabi jarayonlarni o'z ichiga olgan murakkab boshqaruv faoliyati hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali akademik boshqaruv Oliy ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini oshiradi, xalqaro reytinglardagi o'rni mustahkamlaydi va talabalar hamda o'qituvchilarning mamnunlik darajasini oshiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi raqamli asrda barcha sohalar singari oliy ta'lim tizimida ham keng ko'lamli raqamlashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sifatini oshirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha qaror va farmonlari asosida oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash yo'lga qo'yilgan. Ko'plab xorijiy olimlar ham o'zlarining tadqiqotlarini o'tkazishgan.



Hindistonlik professor Kishor P. Bholane o'z tadqiqotida oliy ta'lim muassasalarida raqamli transformatsiyaning ahamiyati, asosiy bosqichlari va duch kelinadigan muammolarni o'rganadi.

Shvetsiyalik professor Jonny Holmström raqamli innovatsiyalar va ularning tashkilotlar, jumladan, oliy ta'lim muassasalariga ta'sirini o'rganadi. U raqamli transformatsiyaning strategik yondashuvlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratadi.

Avstraliyalik professor Fiona Peterson transdisiplinar ta'lim va raqamli ta'lim sohalarida faoliyat yuritadi. U raqamli ish amaliyotlari va ularning ta'lim tizimiga integratsiyasini o'rganadi.

"Higher Education Digital Academic Leadership: Perceptions and Practices from Chinese University Leaders" nomli maqola Xitoy olimlari Meiying Jing, Zhen Guo, Xiao Wu, Zhi Yang, Xiaqing Wang tomonidan yozilgan bo'lib, ular oliy ta'lim muassasalarining rahbarlarining raqamli akademik yetakchilik haqidagi qarashlari va amaliyotlarini o'rganadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali universitetning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirish, akademik va ma'muriy bo'limlar o'rtasida raqamli resurslarni samarali taqsimlash va integratsiya qilish, yangi texnologiyalarni kuzatib borish va ularni ta'lim jarayoniga moslashtirish, universitetda raqamli innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi madaniyatni rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirishga erishayotganini o'rganganlar.

Professor I.M.Abdullayevaning fikricha Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat o'qitish uslublarini yangilash, balki o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish, zamonaviy bilimlarni tezkor va samarali egallash imkonini yaratadi. Ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan har bir keyingi qadam O'zbekistonning barqaror va innovatsion rivojlanishiga zamin yaratadi.

Professor I.M.Abdullayeva, X.Q.Toshtemirovlar o'zlarining maqolalarida Ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda bulutli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari o'rganganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ikki bosqichda amalga oshirildi va har ikkala bosqichda ham O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish jarayonining holati, sur'ati va samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot yondashuvi sifatida aralash metod qo'llanildi, ya'ni sifatli va miqdoriy tadqiqot metodlari uyg'unlashtirilgan holda masalalarga har tomonlama yondashildi. Tadqiqotda raqamlashtirish darajasi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha baholandi. O'quv jarayonining raqamlashtirilgan qismi, elektron hujjat aylanish tizimlari, ilmiy va tashkiliy faoliyatning raqamli integratsiyasi, hamda platformalarning bir-biriga bog'lanish darajasi. Tadqiqot akademik boshqaruvni raqamlashtirishda nafaqat texnologik taraqqiyot, balki inson omilining (foydalanuvchi tajribasi, qulaylik, samaradorlik) ham hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xozirgi kunda Oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, "Elektron universitet", "Elektron dekanat", talaba profilini yuritish, onlayn baholash, davomat nazorati, elektron ariza topshirish, hemis platformasidan foydalanish kabi xizmatlar raqamlashtirilgan. Ko'plab universitetlar o'zlarining YouTube kanallari yoki maxsus platformalari orqali videodarslar, onlayn kurslar, raqamli kutubxonalarni taqdim etmoqda. 2023-yildan boshlab O'zbekistonda raqamli diplomlar va QR-kodli tasdiq tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu diplomlarning soxtalashtirilishini oldini oladi. OTMLar o'rtasida e-Xat (elektron xat almashinuvi), e-Imzo (elektron imzo) kabi tizimlardan foydalanilmoqda.


Quyidagi ikki asosiy bosqichda to'plangan ma'lumotlar asosida olingan natijalar tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida birinchi bosqichda O'zbekistonning uchta yirik oliy ta'lim muassasasida (TDIU, TDPU, TATU) raqamlashtirish jarayonining yillar kesimidagi rivojlanish sur'atlari o'rganildi. Ikkinchi bosqichda esa TDIU misolida raqamli tizimlardan foydalanayotgan professor-o'qituvchilar va talabalarining amaliy tajribasi so'rovnoma va intervyular orqali tahlil qilindi.

1. 2018–2024-yillar oralig'ida uchta universitetda raqamlashtirish ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyasini ko'rib chiqamiz.

2. TDIUda raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanuvchilar (professor-o'qituvchilar va talabalar)ning faolligi, qoniqish darajasi va uchrayotgan muammolarni so'rovnoma asosida tahlil qildik.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida akademik boshqaruvni raqamlashtirish jarayonining amaliy holatini o'rganish, uning o'sish sur'atlari, joriy etilish darajasi, hamda foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinishi va samaradorligini baholashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida har bir universitetda raqamli transformatsiyaning qanday tezlikda, qanday darajada amalga oshirilganligini aniqlash maqsadida O'zbekistonning uchta nufuzli oliy ta'lim muassasasi tanlab olindi. Bular: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU), Toshkent davlat pedagogika universiteti (TDPU) va Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) misolida 2018-yildan 2024-yilgacha raqamlashtirish darajasining o'zgarish sur'atlari tahlil qilindi.




1-rasm. Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish darajasi yillar kesimida¹.

Bunda quyidagilar tahlil qilindi: o'quv jarayonining raqamlashtirilgan qismi, elektron hujjatlarning aylanishi, raqamli platformalarning integratsiyasi (HEMIS, LMS, my.tsue.uz), foydalanuvchi faolligi kabilar. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2018-yildagi 30% dan 2024-yilga kelib 98% gacha ko'tarilgan. My.tsue.uz, elektron baholash, dars jadvali tizimlarining integratsiyasi bunga asos bo'lgan. Raqamlashtirish jarayoni izchil, rejalashtirilgan va foydalanuvchi markazli shaklda olib borilgan. Toshkent davlat pedagogika universitetida raqamlashtirish darajasi 2018-yilda 20% bo'lgan, 2024-yilda 90% ga yetgan. O'quv jarayonida raqamli vositalardan foydalanish mavjud bo'lsa-da, elektron ilmiy faoliyat va integratsiya yetarli emas. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 2018-yildagi 35% dan 2024-yilda 95% ga yetgan. Raqamli infratuzilma kuchli bo'lsada, tizimlar faolligi professor-o'qituvchilar kesimida kuchli, talabalar orasida esa farq qiluvchiligi aniqlangan.

Ushbu bosqichdan ko'rinadiki, raqamlashtirish sur'atlari universitetlarning texnologik salohiyati, foydalanuvchi savodxonligiga bevosita bog'liq. TDIU tajribasi eng samarali model sifatida ajralib turadi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti da raqamli tizimlardan foydalanish faoliyati, foydalanuvchilar ehtiyoji, tizimdan qoniqish darajasi hamda uchrayotgan muammolarni aniqlash madsadida professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida so'rovnoma olib borildi.



2-rasm. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida professor - o'qituvchilar va talabalarining raqamlashtirishdan faol va samarali foydalanishi ko'rsatkichlari.²

¹ Statistika ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

² Muallif ishlanmasi



So'rovnoma 50 nafar respondent (35 talaba, 15 professor-o'qituvchi) ishtirok etdi. Unga ko'ra quyidagi indikatorlar ko'rildi.

- raqamli tizimlardan foydalanish darajasi (%) - o'qituvchilar: [88%](#), talabalar: [72%](#)
- o'quv jarayoniga ta'siri (1–10 ball) o'qituvchilar: [8.5/10](#), talabalar: [6.5/10](#)
- elektron hujjat aylanishiga qoniqish (1–10 ball) o'qituvchilar: [8.2/10](#), talabalar: [6.8/10](#)
- axborot olish tezligi (1–10 ball)- o'qituvchilar: [8.1/10](#), talabalar: [6.7/10](#)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki raqamlashtirish jarayonidan [o'qituvchilar ko'proq va samaraliroq foydalanmoqda](#). Talabalarda imkoniyat mavjud bo'lsa-da, [texnik muammolar](#) ularning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'limda raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Prezidentimizning 2020-yil 28-oktabrdagi PQ–4884-sonli “O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” qarori bunga yaqqol misol bo'la oladi. Qarorda bir qancha ustuvor yo'nalishlar bilan bir qatorda oliy ta'lim tizimida ham

Oliy ta'limda raqamlashtirish asosida boshqaruv tizimini rivojlantirish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki samarali resurs boshqaruvi, global integratsiya va innovatsion rivojlanishning asosi hisoblanadi. Bu jarayon orqali oliy ta'lim muassasalari raqobatbardosh, ochiq va zamonaviy bo'lishga erishadi.

Taklif sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

Universitetlarda yuklama taqsimoti, talabalar reytingini tahlil qilish, akademik intizom monitoringini olib borish kabi jarayonlarni raqamlashtirish ustuvorlikka ega

Oliy ta'lim muassasasining ichki faoliyati uchun elektron hujjat aylanishi va e-imzo tizimi to'liq joriy etilsa juda ko'p qulayliklar paydo bo'ladi, jumladan, barcha hujjatlar (buyruqlar, arizalar, hisobotlar, jadval, ilmiy hisobotlar va hokazo) qog'ozda emas, raqamli shaklda yaratilishi, yuborilishi, ko'rib chiqilishi, tasdiqlanishi va arxivlanishi natijasida qog'ozsiz boshqaruv, masofaviy imzo qo'yish, shaffoflik, korrupsiya xavfini kamaytish hamda huquqiy kuchga ega bo'lish imkoniyatlarini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6- noyabrdagi PF–6108-sonli farmoni “O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha raqamli O'zbekiston strategiyasi”.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-oktabrdagi PQ–4884-sonli qarori “O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”. URL: <https://lex.uz/docs/5052061>
3. Abdullayeva, I.M., Toshtemirov, X.Q. Bulutli texnologiyalar yordamida ta'lim tizimini raqamlashtirishning istiqbollari. – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashri, 2022.
4. Bholane, K.P. Digital Transformation in Higher Education. ResearchGate, 2023. URL: <https://www.researchgate.net/publication/379340741>
5. Holmström, J. Digital innovation and transformation in higher education. Scandinavian Journal of Information Systems, 2022.
6. Peterson, F. Transdisciplinary teaching in a digital world. Higher Education Research & Development, 2018. – Vol. 37(4). – P. 685–699.
7. Jing, M., Guo, Z., Wu, X., Yang, Z., Wang, X. Higher Education Digital Academic Leadership: Perceptions and Practices from Chinese University Leaders. – Education Sciences, 2025. – Vol. 15(5). – Article No. 606. DOI: 10.3390/educsci15050606



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
